



HUJJATLARNING TEXNIK EKSPERTIZASINING IMKONIYATLARI

Qirg'izboyev Ma'rufjon Odiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Kriminalistik ekspertizalar kafedrası o'qituvchisi, katta leytenant

Xalillayev Doniyorbek Quدرات o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi kunduzgi ta'lim 2-o'quv kursi
221-guruh kursanti, safdor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20775813>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 18-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 20-iyun 2026 yil

KEY WORDS

hujjat ekspertizasi, texnik ekspertiza, kriminalistika, qalbakilashtirish, hujjat tekshiruvi, himoya elementlari.

ABSTRACT

Mazkur maqolada hujjatlarning texnik ekspertizasining asosiy imkoniyatlari, hujjatlarni tekshirish jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullar hamda texnik vositalar tahlil qilinadi. Shuningdek, hujjatlarni qalbakilashtirish usullarini aniqlash, hujjatlardagi o'zgartirishlarni fosh etish va ularning haqiqiylikni aniqlash masalalari ko'rib chiqiladi.

Hujjatlar davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar hamda iqtisodiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega. Turli tashkilotlar va fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ko'pincha hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi. Shu sababli hujjatlarning haqiqiylikni aniqlash hamda ularni qalbakilashtirish holatlarining oldini olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hujjatlarning texnik ekspertizasi kriminalistika fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi hujjatlarning tayyorlanish usuli, tarkibi, yozuvlari va himoya elementlarini ilmiy asosda tekshirishdan iborat. Texnik ekspertiza hujjatlarning qalbakilashtirilgan yoki haqiqiy ekanligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasiga oid tadqiqotlarni o'tkazadigan ekspert, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishi uchun, ushbu turdagi ekspertiza obyektlarining kriminalistik xossa va xususiyatlari hamda belgilari haqida tasavvurga ega bo'lishi, poligrafiya asoslari, bo'yovchi moddalar va qog'ozning ishlab chiqarish texnologiyasini bilishi, muhr (shtamp)-lar, yozuv qurollari va hujjatlarni rasmiylashtirishda ishlatiladigan boshqa vositalarning ishlab chiqarish texnologiyasi haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Asosiy qism

Hujjat so'zi lotinchada «namuna, guvohnoma, isbot, dalil» kabi ma'nolarni anglatadi. Keng ma'noda «hujjat – zamon va makonda uzatish uchun yaratgan usulda mustahkamlangan axborotli moddiy obyekt». «Avtomatlashgan axborot-izlov tizimlarida – tizim xotirasiga kiritilgan har qanday obyekt». «Matn, ovoz yozuvi yoki tasvir ko'rinishidagi axborot yozilgan hamda saqlash va ijtimoiy foydalanish maqsadida zamon va makonda uzatishga mo'ljallangan moddiy obyekt»

Hujjatlarning asosiy vazifasi - hujjatlarning muhim vazifasi fuqarolar, davlatlar, jamoat tashkilotlari, muassasalar, korxonalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni rasmiylashtirish, qonunda belgilangan holda yuzaga keladigan, o'zgaradigan va to'xtatiladigan muayyan huquq

va majburiyatlar bilan bog'liq huquqiy holatlarni tasdiqlash hisoblanadi.

Hujjatlarning texnik ekspertizasi – bu hujjatlarning tayyorlanish texnologiyasi, yozuvlari, bosma elementlari va materiallarini ilmiy usullar yordamida tekshirish jarayonidir. Ushbu ekspertiza jarayonida hujjatlarning haqiqiyliги aniqlanadi, hujjatga kiritilgan o'zgartirishlar aniqlanadi hamda hujjatni tayyorlash usullari o'rganiladi.

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizalari tadqiqotlariga ko'pincha hujjat xususiyatiga ega bo'lmagan buyumlar ham taqdim etiladi: hujjatlarni tayyorlashda ishlatiladigan mashinka yoki yozuv uskunalar, muhr va shtamplar. Ushbu obyektlar bilan hujjatlar orasidagi bog'liqlikni aniqlash ayrim hollarda tergov organlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasining tadqiqot obyektlariga quyidagilar kiradi:

- hujjatning materiali, ular: qog'oz, yozuv chiziqlarining moddasi (siyoh, qalam, pasta, tipografik bo'yoq), yelimlovchi modda;
- hujjatning o'ziga matn, imzo, muhr va shtamplarning aksi, turli belgilar, rezolyutsiya va shu kabilarni olgan mazmuni;
- hujjatlar tayyorlashda ishlatiladigan iz hosil qiluvchi sirtlar. Ularga muhr, shtamp, yozuv qurilmalari, kassa apparatlari, komposterlar va shu kabilar kiradi.

Hujjatarning texnik ekspertizasida quyidagilarni kirib o'rganish lozim:

1. Hujjatlar materiallarining kriminalistik ekspertizasining obyektlari va vazifalari.
2. Hujjatlar materiallarining kriminalistik ekspertizasining metodlari.
3. Qog'oz haqida umumiy ma'lumotlar.
4. Qog'ozlarni ishlab chiqishning umumiy texnologik sxemasi.
5. Qog'ozlarning kriminalistik tadqiqotlari.
6. Yozuv materiallari haqida umumiy ma'lumotlar.
7. Yozuv materiallari kriminalistik tadqiqotlarining umumiy sxemasi.
9. Yelimlarning kriminalistik tadqiqotlari.
10. Muqova materiallari haqida umumiy ma'lumotlar.
11. Muqova materiallarining kriminalistik tadqiqotlari.
12. Yemiruvchi moddalarning kriminalistik tadqiqotlari.

Hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlarining metodlariga quyidagilar kiradi;

1. Bilishning umumiy dialektik-materialistik metodlari.
2. Umumiy (umumilmiy) metodlar: kuzatish (ko'zdan kechirish), o'lchash, ta'riflash (ta'riflab yozish), eksperiment, modellashtirish, an'anaviy mantiqiy metodlar va hokazo. 15
3. Xususiy instrumental va yordamchi-texnik metodlar.
4. Maxsus metodlar.

Ushbu metodlarni qo'llash hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasini o'tkazishda quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

1. Hujjatni buzilmasligi yoki o'zgarmasligini ta'minlashi lozim.
2. Ilmiy asoslangan bo'lishi va tajribada sinalgan bo'lishi.
3. Metodlarni qo'llash natijalari ekspert uchun ham, jinoyat protsessining boshqa barcha ishtirokchilari uchun ham tushunarli, ishonchli va ko'rgazmali bo'lishi kerak.

Xulosa

Hujjatlarning texnik ekspertizasi hujjatlarning haqiqiylikini aniqlashda, qalbakilashtirish holatlarini fosh etishda hamda jinoyatlarni tergov qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ekspertiza yordamida hujjatlarning tayyorlanish usuli, materiallari, yozuvlari va himoya elementlari chuqur o'rganiladi. Shu sababli hujjatlarning texnik ekspertizasi sohasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hujjatlarning texnik ekspertizasini hozirgi kundagi eng dolzarb ekspertiza turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ham hozirgi kunda hujjatlarni sohtalashtirish kabi jinoyat turlari ko'p uchramoqda. Mamlakatimizda hujjatlarni qalbakilashtirish jinoyatlarining turlari kundan kunga rivojlanib o'sib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2022 yildagi "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-sonli qarori
2. Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari - Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Toshkent-2016
3. Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi ma'ruzalar kursi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiya Mamatqulov T.B. TOSHKENT - 2017
4. Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahririda. - T., 2001. - B. 644.
5. O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi 2010 yil 1 iyun qonuni / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2010

INNOVATIVE
ACADEMY